ILMIY DISKURSNING FUNKSIONAL-PRAGMATIK VA LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Maxmudova Sabinabonu Raxmatilla qizi
Andijon davlat chet tillar instituti doktoranti
sabinamaxmudova2000@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23907704

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilmiy diskursning tilshunoslik doirasidagi nazariy jihatlari, funksional-pragmatik xususiyatlari hamda uning tilning turli sathlarida namoyon bo‘lish usullari tahlil qilinadi.Tadqiqotda ilmiy bayonning asosiy belgilariga aniqlik, mantiqiy izchillik, konseptual zichlik, terminologik me’yorlilik, emotsional neytrallik va sintaktik tartiblilik kiritiladi. Shuningdek, ilmiy nutqning yozma va og‘zaki ko‘rinishlari o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar, terminologik birliklarning funksiyasi, nominalizatsiya jarayoni, klişelashgan sintaktik qoliplar hamda matnning bog‘liqlik vositalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy diskurs, ilmiy uslub, ilmiy kommunikatsiya, terminologiya, nominalizatsiya, sintaktik struktura, funksional stilistika, akademik matn.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические аспекты научного дискурса в языкознании, его функционально-прагматические особенности, а также способы его проявления на различных уровнях языка. К основным признакам научного изложения относятся точность, логическая последовательность, концептуальная насыщенность, терминологическая нормативность, эмоциональная нейтральность и синтаксическая упорядоченность. Особое внимание уделяется общим и дифференциальным признакам письменной и устной научной речи, функциям терминологических единиц, процессу номинализации, клишированным синтаксическим моделям и средствам текстовой связности.

Ключевые слова: научный дискурс, научный стиль, научная коммуникация, терминология, номинализация, синтаксическая структура, функциональная стилистика, академический текст.

Abstract. This article analyzes the theoretical aspects of scientific discourse in linguistics, its functional-pragmatic features, and the ways it is manifested at different levels of language. The main features of scientific exposition include precision, logical coherence, conceptual density, terminological normativity, emotional neutrality, and syntactic organization. Special attention is paid to the common and distinctive features of written and oral scientific communication, the functions of terminological units, the process of nominalization, cliché syntactic models, and the means of textual cohesion.

Keywords: scientific discourse, scientific style, scientific communication, terminology, nominalization, syntactic structure, functional stylistics, academic text.

KIRISH

Hozirgi tilshunoslikda ilmiy diskurs alohida funksional maydon sifatida keng o‘rganilmoqda. Bu hodisa faqat ilmiy matnning tashqi shakliy xususiyatlari bilan emas, balki bilish jarayoni, tushuncha yaratish, ilmiy axborotni kodlash va uzatish mexanizmlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Shu bois ilmiy diskursni tor ma’noda “ilmiy matnlar yig‘indisi” deb emas, balki bilim ishlab chiqish va uni muloqotda ijtimoiylashtirishning lingvistik shakli deb tushunish maqsadga muvofiqdir [4,56].

Ilmiy uslubning shakllanishi va til vositalarining saralanishi uning asosiy kommunikativ vazifasi bilan belgilanadi. Bu vazifa ilmiy axborotni imkon qadar aniq, asoslangan, tizimli va bir ma'noli shaklda ifodalashdan iborat. Shuning uchun ilmiy matnda ifodaning mantiqiyligi, semantik aniqligi, strukturaviy izchilligi hamda axborotning tushunarli tashkil etilishi ustuvor hisoblanadi [9,110]. Ilmiy bayonning muvaffaqiyati ko'p jihatdan aynan shu xususiyatlarning qanchalik uyg'unlashganiga bog'liq bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur maqola sifat jihatdan tavsifiy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda funksional-stilistik, qiyosiy, interpretativ va matnshunoslikka oid yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini ilmiy uslub, funksional stilistika, matn pragmatikasi va ilmiy kommunikatsiya bo'yicha shakllangan ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Ilmiy diskursning nazariy ahamiyati shundaki, u tilning barcha sathlarida –fonetik, leksik, morfologik va sintaktik qatlamlarda – maxsus funksional moslashuvni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, ilmiy diskursning turli tillarda namoyon bo'lish shakllari universal belgilar va milliy-tipologik tafovutlarning o'zaro birligi asosida yuzaga chiqadi [7,273]. Demak, ilmiy diskursni o'rganish nafaqat funksional stilistika, balki pragmatika, matnshunoslik, terminologiya va qiyosiy tilshunoslik uchun ham muhim ilmiy natijalar beradi.

Ilmiy diskurs, avvalo, ilmiy tafakkurning verbal ifodasi hisoblanadi. Unda til bilish vositasi, tushunchalarni shakllantirish vositasi va ilmiy hamjamiyat ichida bilim almashish instrumenti sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ilmiy diskursni faqat mazmun uzatish shakli deb baholash yetarli emas, u ilmiy haqiqatni asoslash, tasniflash, izohlash va xulosalashning ham semantik-mantiqiy maydonidir. Mazkur diskurs turining muhim belgisi uning kommunikativ jihatdan oldindan rejalashtirilgan va me'yorlashtirilgan bo'lishidir. Oddiy kundalik muloqotda vaziyatga bog'liq improvizatsiya kuchli bo'lsa, ilmiy nutqda kompozitsion tartib, argumentatsiya ketma-ketligi va terminlarning izchil qo'llanishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu jihat ilmiy matnning universalligini ham ta'minlaydi: turli tilda yozilgan ilmiy matnlarda rasmiylik, dalillilik, tushunchaviy qat'iylik va xolislik umumiy tamoyil sifatida saqlanadi [1,93].

Shu nuqtai nazardan ilmiy diskurs ikki muhim xususiyatning kesishgan nuqtasida shakllanadi: bir tomondan, u konservativ me'yoriy tizimga tayansa, ikkinchi tomondan, fan taraqqiyoti natijasida yangilanib boradigan dinamik kommunikativ makondir. Yangi nazariya, metod va ilmiy paradigma paydo bo'lishi bilan tilning ilmiy resurslari ham boyib boradi. Bu, ayniqsa, yangi terminlar, interdisiplinar tushunchalar va xalqaro akademik muloqotga xos birliklarning ko'payishida yaqqol seziladi [12,8].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ilmiy diskursning yetakchi belgilaridan biri axborotlilikdir. Ilmiy matn o'quvchiga yoki tinglovchiga yangi bilimni yetkazishi, mavjud bilimni tizimlashtirishi yoki muayyan ilmiy muammoning yechimiga oid nazariy asos berishi kerak. Biroq ilmiy axborotlilik oddiy ma'lumot ko'pligi bilan belgilanmaydi; u ma'lumotning mantiqiy saralanganligi, ilmiy asoslanganligi va tushunchaviy aniqligi bilan tavsiflanadi [11,27].

Ikkinchi asosiy belgi – mantiqiy izchillikdir. Ilmiy nutqda fikrning ketma-ket rivojlanishi, dalil va xulosalar o'rtasidagi sababiy hamda mantiqiy bog'lanishlarning ochiq ifodalanishi juda muhimdir. Shu bois ilmiy matn tarkibida "demak", "shunday qilib", "bundan kelib chiqadiki", "aksincha", "natijada" kabi mantiqiy bog'lovchi vositalar faol ishlatiladi [10,14].

Uchinchi muhim xususiyat – aniqlik va bir ma'nolilik. Ilmiy matnda polisemiya, noaniq metaforiklik yoki sub'ektiv emotsional munosabat imkon qadar cheklanadi. Chunki ilmiy bilimni uzatishda semantik noaniqlik tadqiqot mazmunining noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin [8,17]. Aynan shu sababli ilmiy uslubda terminlar tizimi markaziy ahamiyatga ega bo'ladi.

To'rtinchi belgi – emotsional neytrallikdir. Ilmiy matn muallifning hissiy holatini ifodalashdan ko'ra, o'rganilayotgan obyekt, hodisa yoki qonuniyatning xolis tavsifini berishga

yo‘naltiriladi. Bu, albatta, muallif pozitsiyasi butunlay yo‘q degani emas; biroq u ko‘proq dalillash, izohlash va xulosa chiqarish shaklida ifodalanadi.

Beshinchi belgi – standartlashuv. Ilmiy muloqotda mazmunning tez va aniq qabul qilinishi uchun tipik sintaktik konstruktsiyalar, janriy qoliplar va matn kompozitsiyasi shakllanadi. Annotatsiya, kirish, metodologiya, natijalar, muhokama va xulosa kabi bo‘limlar zamonaviy akademik yozuvning standart elementlariga aylangan [13,58].

Ilmiy diskursning leksik tizimida terminologik birliklar markaziy o‘rin egallaydi. Termin ilmiy tushunchani boshqa semantik qatlamlardan ajratib, uning aniq konturini belgilovchi vositadir. Terminologiya ilmiy tafakkurning kategoriyalashgan ko‘rinishi bo‘lib, u tushunchalarning bir-biri bilan munosabatini izchil ifodalash imkonini beradi [14,22]. Shu sababli terminlar nafaqat nomlovchi, balki tizimlashtiruvchi vazifani ham bajaradi.

Ilmiy leksikada umumilmiy birliklar ham alohida qatlamni tashkil etadi. Bular turli fanlarga xos bo‘lgan “metod”, “jarayon”, “sistema”, “struktura”, “funksiya”, “model”, “klassifikatsiya”, “analiz”, “konsepsiya” kabi so‘zlardir. Ular ilmiy nutqning konseptual tayanchini tashkil etadi va turli fanlar o‘rtasida semantik ko‘prik vazifasini bajaradi [6, 152]. Shu bilan birga, ilmiy diskursda klişelashgan leksik-sintaktik birliklar keng uchraydi. Bunday formulalar yangi mazmun yaratishdan ko‘ra, ilmiy fikrni standart mantiqiy qoliplar asosida ifodalashga xizmat qiladi. “Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki…”, “quyidagi xulosaga kelish mumkin…”, “mazkur hodisani tahlil qilish jarayonida…”, “yuqoridagilardan kelib chiqib…” kabi birliklar ilmiy matnning kompozitsion ravonligini kuchaytiradi [5,14]. Bu holat ilmiy diskursning individuallikdan ko‘ra intersubyektiv tushunarlilikka ko‘proq yo‘naltirilganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, ilmiy leksikada ayrim umumiste’mol so‘zlar terminologik ma’noda qayta ixtisoslashadi. Natijada ular kundalik nutqdagi ma’nosidan farqli ravishda muayyan fan doirasida qat’iy tushunchani ifodalay boshlaydi. Bunday holat ilmiy diskursning semantik zichligini oshiradi va matnni tayyorlanmagan o‘quvchi uchun murakkablashtiradi.

Ilmiy diskursning morfologik tuzilishida otlashuv va nominalizatsiya alohida ahamiyatga ega. Nominalizatsiya jarayoni orqali harakat, belgi yoki holat predmetlashadi va abstrakt tushuncha sifatida ifodalanadi. Masalan, “o‘rganmoq” fe’lining “o‘rganish”, “tasnif qilmoq”ning “tasniflash”, “tarqalmoq”ning “tarqalish” shakliga o‘tishi ilmiy bayonning mavhum va umumlashtirilgan tabiatini kuchaytiradi [15,17]. Nominalizatsiya ilmiy matnda bir necha funksiyani bajaradi.

– Birinchidan, u nutqni ixchamlashtiradi.
– Ikkinchidan, hodisani subyektdan nisbatan mustaqil ravishda taqdim etadi.
– Uchinchidan, tushunchalar o‘rtasidagi ierarxik va mantiqiy munosabatlarni soddaroq tuzishda yordam beradi. Shu ma’noda nominalizatsiya ilmiy diskursning ob’ektivlashtiruvchi mexanizmlaridan biridir [3,42].

Morfologik jihatdan ilmiy uslubda uchinchi shaxs fe’l shakllari, hozirgi zamon formasi, majhul nisbat va shaxssiz konstruktsiyalar faolligi kuzatiladi. Bu birliklar matndan muallifning individual “men”ini chekinishga majbur etib, asosiy e’tiborni ilmiy obyekt va tadqiqot natijasiga qaratadi. Masalan, “aniqlandi”, “tasdiqlandi”, “o‘rganildi”, “kuzatildi” kabi shakllar aynan shu maqsadga xizmat qiladi [7, 273].

Turli tillarda ushbu morfologik mexanizmlar turlicha ifodalanadi. Sintetik tillarda qo‘shimchalar va grammatik kategoriyalar muhim rol o‘ynasa, analitik tillarda yordamchi birliklar, qat’iy so‘z tartibi va sintaktik vositalar ustun keladi. Shu sababli ilmiy diskursning universal prinsiplari til tipologiyasi bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi.

Ilmiy diskurs sintaksisi ilmiy tafakkurning mantiqiy arxitekturasini aks ettiradi. Bunda gaplar, odatda, semantik jihatdan zich, tarkiban kengaygan va mantiqiy munosabatlarni ochiq ifodalashga xizmat qiladigan shaklda quriladi. Sodda gaplar ilmiy ta’rif va qisqa xulosalarda uchrasa, murakkab gaplar sabab, natija, shart, qiyos, izoh va umumlashtirish munosabatlarini berishda faol ishlatiladi [8,17].

Ergash gapli qo‘shma gaplar, kirish konstruktsiyalari, ajratilgan bo‘laklar, sifatdosh va ravishdoshli birliklar ilmiy matnning analitik tabiatini ta’minlaydi. Bunday sintaktik tuzilmalar bir fikr doirasida bir nechta semantik komponentni mujassamlashtirish imkonini beradi. Shu bois ilmiy matn yuzaki sodda ko‘rinsa-da, uning sintaktik ichki tuzilishi ko‘pincha murakkab bo‘ladi.

Ilmiy matnning yaxlitligi esa faqat alohida gaplar hisobiga emas, balki ularning o‘zaro bog‘lanish tizimi orqali yuzaga chiqadi. Matn ichidagi referensial birliklar, ko‘rsatish olmoshlari, leksik takrorlar, sinonimik almashinuv, mantiqiy signal birliklari va bo‘limlararo kompozitsion parallelizm ilmiy matn koherentligini ta’minlaydi [10,19]. Demak, ilmiy diskurs sintaksisi gap sathidan tashqariga chiqib, matn sathidagi mantiqiy tashkil bilan chambarchas birlashadi.

Ilmiy diskurs ko‘pincha yozma shaklda namoyon bo‘lsa-da, uning og‘zaki ko‘rinishi ham mustaqil kommunikativ ahamiyatga ega. Ma’ruza, ilmiy hisobot, konferensiya chiqishi, seminar munozarasi kabi janrlar og‘zaki ilmiy muloqotning asosiy shakllaridir. Biroq og‘zaki ilmiy nutq ham, odatda, yozma reja yoki oldindan tayyorlangan matn asosida quriladi [12,63]. Bu holat ilmiy diskursning yuqori darajadagi tayyorgarlik va strukturaviy nazoratga tayanishini ko‘rsatadi.

Yozma ilmiy nutq ko‘proq sintaktik murakkablik, to‘liq izoh va dalillash tizimi bilan ajralib turadi. Og‘zaki ilmiy nutqda esa qabul qilish qulayligini ta’minlash uchun takror, pauza, intonatsion urg‘u, ayrim sintaktik soddalashtirish va izohiy segmentatsiya paydo bo‘ladi. Biroq har ikki shakl uchun umumiy bo‘lgan jihat – rasmiylik, terminologik aniqlik va mantiqiy tartiblilikdir.

Fonetik nuqtai nazardan og‘zaki ilmiy nutqda adabiy talaffuz me’yorlari, aniq artikulyatsiya, mantiqiy urg‘u va ritmik me’yor muhimdir. Ilmiy nutqning emotsional jihatdan nisbatan neytral bo‘lishi uning ta’sirsiz ekanini anglatmaydi; aksincha, ta’sir kuchi mazmunning dalilliligi va bayonning ravshanligi orqali ta’minlanadi.

So‘nggi yillarda ilmiy diskursning ko‘lami va shakllari sezilarli kengaydi. Ilmiy maqola, monografiya va dissertatsiyalar bilan bir qatorda elektron resurslar, raqamli akademik platformalar, xalqaro ma’lumotlar bazalari va multimodal ilmiy taqdimotlar ham ilmiy kommunikatsiyaning muhim kanallariga aylandi [2,44]. Bu esa ilmiy diskursning nafaqat lingvistik, balki texnologik va pragmatik jihatdan ham yangilanayotganini ko‘rsatadi.

Bugungi ilmiy diskursda interdisiplinarlikning kuchayishi natijasida terminologik almashinuv, yangi gibrid tushunchalar va transmilliy akademik standartlarning shakllanishi kuzatilmoqda. Akademik yozuvning xalqaro formatlari, xususan, annotatsiya, kalit so‘zlar, metodologik shaffoflik va bibliografik standartlarning kuchayishi ilmiy matnning global tushunarliligini ta’minlashga qaratilgan [13,71].

Shu bilan birga, zamonaviy ilmiy diskurs oldida yangi talablar ham paydo bo‘lmoqda: qisqa, ammo sig‘imli bayon; manbalarga aniq tayanish; plagiatga yo‘l qo‘ymaslik; muallif pozitsiyasini ilmiy xolislik bilan uyg‘unlashtirish. Demak, ilmiy diskurs endilikda faqat lingvistik hodisa emas, balki akademik etika va ilmiy madaniyatning ham muhim ko‘rsatkichiga aylanmoqda.

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy diskurs tilning funksional tabaqalanishida o‘ziga xos, murakkab va ko‘p qatlamli hodisa hisoblanadi. Uning markazida bilimni xolis, aniq, tizimli va mantiqan asoslangan tarzda ifodalash tamoyili turadi. Mazkur tamoyil ilmiy diskursning barcha sathlarida – terminologik tanlovda, morfologik vositalarda, sintaktik tuzilmalarda va matn kompozitsiyasida o‘z aksini topadi. Ilmiy diskursning leksik qatlamida terminologik aniqlik, umumilmiy birliklar va klişelashgan formulalar ustuvor bo‘lsa, morfologik sathda nominalizatsiya, majhul nisbat va shaxssiz ifodalar faol ishlatiladi. Sintaktik sathda esa murakkab gaplar, izohiy konstruktsiyalar va matn bog‘liqligini ta’minlovchi birliklar ilmiy tafakkurning lingvistik modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ilmiy diskursning konservativ me’yoriy xususiyati uni barqarorlashtirsa, fan, texnologiya va xalqaro

kommunikatsiya taraqqiyoti uning dinamik rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bois ilmiy diskursni o‘rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy akademik yozuv, tarjimashunoslik, terminologiya va ilmiy kommunikatsiya metodikasi uchun ham alohida dolzarblik kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Галушко Т. Г. Язык в свете современных концепций оснований науки и проблема глагольных аналитических конструкций: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1999. – 46 с.
2. Зорина Ю. В. Лингвистическая специфика научного дискурса. – Омск: ОмГТУ, 2013. – 104 с.
3. Исакова Л. Д. Характерные свойства лингвистического дискурса. – М.: ИПК МГЛУ «Рема», 2012. – 96 с.
4. Кожина М. Н. О речевой системности научного стиля сравнительно с некоторыми другими. – Пермь:Изд-во Пермского гос. университета, 1972. – 395 с.
5. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.
6. Маженова М. Р. Теория текста и традиционные проблемы поэтики // Новое в зарубежной лингвистике. – 1978. – № 8. – С. 425–441.
7. Марчук Ю. Н. Сопоставление общенаучной лексики в обучении переводу // Сопоставительная лингвистика и обучение неродному языку. – М.: Наука, 1987. – С. 152–156.
8. Наер В. Л. Прагматика научных текстов (вербальный и невербальный аспекты) // Функциональные стили: лингвометодологические аспекты. – М.: Наука, 1985. – С. 14–25.
9. Пугачева Е. Ф. Эволюция средств выражения каузальных отношений в английском языке научной прозы XVIII–XX вв.: дис. ... канд. филол. наук. – М., 1996. – 199 с.
10. Разинкина Н. М. Функциональная стилистика. – М.: Высшая школа, 1989. – 181 с.
11. Hyland K. Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing. – London: Longman, 2000. – 256 p.
12. Kuteeva M. Revisiting the Scientific Article: Genre, Structure and Academic Communication. – Stockholm: Stockholm University Press, 2020. – 210 p.
13. Swales J. M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 260 p.
14. Widdowson H. G. Discourse Analysis. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 176 p.